

XORIJIY TIL KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Norboyeva Nilufar

Ilmiy rahbar : Isamuxamedova Munisxon

Annotatsiya : Ushbu maqolada xorijiy til kompetensiyalarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish va yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oquvchilarda o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchayirish ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Yangi texnologik jarayon va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o'qitishning maqsadini o'quvchilarga bilim berish va ma'lum, nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchayirish ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'quvchilardagi o'z kuchiga bo'lgan ishonchini hosil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Ma'lumki ta'lim jarayoni murakkab hisoblanadi. Xorijiy til darslaridayangi o'quv materialini prezentatsiya uning turli mashqlar orqali mashq qilinishi va turli nutqiy vaziyatlarga mos qo'llash orqali tegishli nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Talabalarning darsdagi faolligini oshirishda qator interfaol usullardan fodalanish mumkin. Interfaol metod iborasi ingliz tilidagi "interactive" so'zidan olingan bo'lib u talabalarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning turli qator turlari bo'lib hozirda keng qo'llanilayotgan "aqliy hujum", ishbilarmonlik o'yinlari, "pinbord", "klaster", "sinkveyn", "kyubik texnologiyasi" rolli o'yinlar kabi interfaol metodlarning ayrim ko'rinishlari ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol o'qitishda guruh-guruh bo'lib o'qitish, 3-3 kiashidan iborat kichik guruhlar tuzish, samaralu hisoblanadi. Yuqoridagilarni umumlashtirib "innovatsion texnologiya deb atash mumkin.

Hozirgi kunda interfaol metodning yuzdan ortiq yuti mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba sinovdan o'tib yaxshi natija bergan. Ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbqiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

- Darsni o'qitish jarayonida har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda erkin muloqotga kirishishni rivojlantirish;
- Talim jarayonida ham faollikni oshiruvchi metod va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.

Innovatsion texnologiyalarning xorijiy til kompetensiyalarni o'qitishdagi ahamiyati katta. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsni sifatli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion texnologiya ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogic jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egalashni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatga yangilik, o'gartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda mustaqil ishlash ko'nikma va malakasi rivojlanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ayni paytda xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish darsni har tomonlama sifatli va qiziqarli o'tish imkonini beradi va innovatsion texnologiyaga qiziqish kundan kunga ortib bordi. Innovatsion texnologiyalar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga tahlil, xulosa qilishga o'rgatadi.

REFERENCES:

1. Hinkel E. Culture in Second Language Teaching and Learning. Oxford, 1999.
2. Robotjazi, M. A. (2008). Language education: Intercultural communicative competence and curriculum. *Glossa*, 3(2), 245-265
3. Nietro S. Language, Culture and Teaching. N. J., 2002.
4. Paluanova, X. D. "Derivation-semantic principles of ecological terms in English, Uzbek, Russian and Karakalpak languages: Dr. phil. sci. diss." (2016).